

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
“Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida
ma‘naviy-ma‘rifiy hamda tarbiyaviy ishlar
samaradorligini oshirish kontseptsiyasini tasdiqlash
to‘g‘risida”gi 2022-yil 3-oktabr kungi 558-sonli qarori

REJA

- Konsepsiyaning maqsadi va asosiy vazifalari
- Maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari
- Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning usul va shakllari
- Erishiladigan natijalar

“Umumiy o’rta ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi 5-bobdan iborat :

- 1-bob. Umumiy qoidalar
- 2-bob. Konsepsiyaning maqsadi va asosiy vazifalari
- 3-bob. Maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari
- 4-bob. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning usul va shakllari
- 5-bob. Erishiladigan natijalar

1-bob. Umumiy qoidalar

- Ta'lim tizimini rivojlantirish, yoshlarning intellektual salohiyati, dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan avlodni tarbiyalash jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Uchinchi Renessans poydevori barpo etilayotgan hozirgi tarixiy jarayonda sog'lom ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash asosiy shartlardan biridir.

1-bob. Umumiy qoidalar

- Hozirgi paytda xalq ta'limi tizimida “Yangi O'zbekiston maktab ostonasidai boshlanadi” degan ezgu g'oya asosida ta'lim-tarbiyaga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'quvchilarning bilimi va iqtidori, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, o'quvchilar tarbiyasi va ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan buzg'unchi va zararli goyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik va boshqa tahdidlar tobora kuchayib bormoqda. Buning oqibatida sohadagi ishlarni zamonaviy va ta'sirchan yondashuvlar, samarali usullar asosida yanada takomillashtirish ehtiyoji yuzaga kelmoqda.

1-bob. Umumiy qoidalar

- “Yangi O‘zbekistonning yangi maktabi” g‘oyasi asosida Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida ma‘naviy-ma‘rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda - Konsepsiya) maktablardagi ijtimoiy muhitni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni amaliyotga tatbiq etishni nazarda tutadi.

2-bob. Konsepsiyaning maqsadi va asosiy vazifalari

- 1. Konsepsiyaning maqsadi o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, yuksak ahloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash hisoblanadi.
- 2. Konsepsiyada belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalar amalga oshiriladi:
- maktablardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilashda rahbar va pedagog xodimlar, o'quvchilar hamda ota-onalarning hamkorligi va mas'uliyatini oshirish;
- ta'lim-tarbiya jarayoniga mustaqil bilim shakllantirish metodikasini joriy qilish orqali o'quvchilarning o'z ustida ishlashi hamda tashabbuskorligini oshirish;

2-bob. Konsepsiyaning maqsadi va asosiy vazifalari

- mustaqil bilim shakllantirish metodikasi orqali o'quvchilarda sog'lom qadriyatlarni shakllantirish;
- o'quvchilarda axborotlarni tahlil qilish hamda bilimiga tayangan holda xolis xulosa qilish ko'nikmasini rivojlantirish;
- taqdimotlar tayyorlash ko'nikmasi orqali o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini, huquqiy savodxonligini oshirish hamda turli g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarning oldini olish immunitetini shakllantirish;
- O'quvchi tarbiyasida maktab, oila, mahalla va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamkorligini yanada kuchaytirish;
- oilalarda farzand tarbiyasi va ularni mustaqil hayotga tayyorlashga bo'lgan e'tibor va mas'uliyatni kuchaytirish hamda o'quvchilarda namunaviy tarbiyaviy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan media mahsulotlarni yaratish va amaliyotga tatbiq etish.

3-bob. Maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar

- 1- §. Maktab ta'limini umummilliy harakatga aylantirish yo'nalishi
- 1. Maktab jamoasi, ota-onalar hamda jamoatchilikning o'zaro munosabatlarida odob-ahloq va ichki tartib-qoidalariga rioya qilinishi maktabning ijtimoiy-ma'naviy muhitini belgilab beradi. Bunda:
- “O'zbekiston - Vatanim manim” mavzusida tashkil etiladigan ijodiy ishlar tanlovi orqali o'quvchilarda Vatanga sadoqat, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini yanada kuchaytirish;

3-bob. Maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar

- “Davlat ramzlari - faxrim, g’ururim” mavzusidagi tadbirlar orqali o’quvchilar ongida Vatanimiz ramzlarini ulug’lash va ardoqlash tuyg’usini tarbiyalash;
- “Davlat tili - millat ruhi” goyasi asosida turkum ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-badiiy tadbirlar tashkil qilish;
- tizimli tahdillar asosida “Namunali maktab direktori”, “Namunali ustoz”, “Namunali o’quvchi” va “Namunali ota-ona” modellarini ishlab chiqish;
- maktabdagi mavjud holatni o’rganish va tahlil qilish mezonlarini ishlab chiqish hamda shu asosda ijtimoiy-ma'naviy muhitni baholash orqali maktablarni “qizil”, “sariq” va “yashil” toifalarga ajratish;

3-bob. Maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar

- “qizil” toifadagi maktablarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish maqsadida idoralararo hamda keng jamoatchilik hamkorligini samarali tashkil etish;
- “sariq” toifadagi maktablarda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rish;
- “yashil” toifadagi maktablar tajribasini keng targ'ib qilish va ommalashtirish;
- ta'lim standartlari, o'quv dasturlari hamda darsliklarning yangi avlodini yaratish orqali o'quvchilarni ma'naviy yetuk va erkin fikrlaydigan shaxs qilib tarbiyalash;

3-bob. Maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar

- maktablarda “Vazir soati”, “Olim va yoshlar”, “Shifokor va yoshlar”, “Tadbirkor va yoshlar”, “Ustoz va yoshlar”, “Hunarmand va yoshlar”, “Hokim va yoshlar”, “Prokuror va yoshlar”, “Senator va yoshlar”, “Deputat va yoshlar”, “Ichki ishlar organi xodimi va yoshlar”, “Harbiy va yoshlar” kabi uchrashuvlarni tashkil etish;
- o'quvchilar orasida o'qituvchilik kasbiga bo'lgan qiziqishni yanada oshirish maqsadida fidoyi o'qituvchi-murabbiylar faoliyatiga bag'ishlangan yangi badiiy asarlar, filmlar va boshqa ijod namunalarini yaratish hamda ommaviy axborot vositalari, Internet jahon axborot tarmog'ida keng yoritish

3-bob. Maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar

- 2-§. O'quvchilarda kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish yo'nalishi
- 1. O'quvchilar ongida xalqimizning ma'naviy qudrati va boqiy qadriyatlariga nisbatan faxr tuyg'usini shakllantirishda, ularning mustakil fikr yuritish ko'nikmasiga ega bo'lishida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.
- Buning uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish nazarda tutiladi:
- o'quvchilarga kitob mutolaasi jarayonida “oddiydan murakkabga” tamoyili asosida badiiy asarlarni tanlash va sinchiklab o'qish malakasini hosil qilish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish;
- o'quvchilarning kitobxonlikka bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida xalq ta'limi vazirining “Kitobxon o'quvchi” tanlovini tashkil etish;

3-bob. Maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar

- maktab yoshidagi o'quvchilarga mo'ljallangan yangi badiiy, ilmiy-ommabop adabiyotlarni yaratish va tarjima qilish ishlarini jadallashtirish hamda ularning mualliflarini rag'batlantirish;
- “Maktab kutubxonasi”, “Jahon bolalar adabiyoti durdonalari” ruknida yuz jildlik kitoblar to'plamining nashrini yo'lga qo'yish;
- o'quvchilar orasida mutolaa madaniyatini rivojlantirish maqsadida “Kitobxonlik haftaligi”ni tashkil etib, bolalar va o'smirlar adabiyoti masalalariga bag'ishlangan adabiy uchrashuvlar va kitob festivallarini o'tkazish; o'quvchilarning mustakil fikrini og'zaki va yozma ravishda bayon etish malakasini oshirish maqsadida ular o'qigan kitoblari bo'yicha “Notiq o'quvchi” hamda insholar tanlovlarini o'tkazish;
- Boshlang'ich sinf o'quvchilarini “Jajji akademik” to'garaklariga jalb etish hamda ularga mutolaa sirlari va kitobxonlik madaniyati bo'yicha tushunchalar berib borish;

3-bob. Maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar

- bolalarga kitob sovg'a qilishni an'anaga aylantirish maqsadida "Farzaidimga kitob sovg'a qilaman" va "Maktab kutubxonasiga kitob sovg'asi" ijtimoiy aksiyalarini o'tkazib borish;
- bosma va elektron nashrlarda bolalar ijodi namunalarini muntazam ravishda e'lon qilib borish, iste'dodli ijodkor o'quvchilarni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;
- bolalarning bilim doirasi va dunyoqarashini kengaytirish, shuningdek, turli fan sohalari va kasb-hunarlarga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga qaratilgan ensiklopedik asarlar, lug'at va albomlar, badiiy asarlar, to'la va qisqa metrajli badiiy filmlar, videoroliklar va telefilmlar, multfilmlar yaratish

3-bob. Maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar

- 3-§. Buyuk ajdodlar jasorati hamda harbiy vatanparvarlik yo'nalishi
- 1. O'quvchilarning ma'naviy immunitetini mustahkamlash, o'z Vatani va xalqi taqdiri uchun mas'uliyat va javobgarlik hissini oshirishda buyuk ajdodlarimizning jasorati hamda harbiy vatanparvarlikni keng targ'ib etish muhim ahamiyatga ega.
- Quyidagilar bu borada ustuvor jihatlar hisoblanadi:
- “Afsonaga aylangan jasorat” g'oyasi asosida Alpomish, Shiroq, To'maris kabi milliy qahramonlarning jasorati aks ettirilgan multimedia mahsulotlarini tayyorlash va maktablarda ularning taqdimotlarini o'tkazish;

3-bob. Maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar

- Birinchi SHarq Uyg'onish davri - IX-XII asrlarda mintaqamizda yuz bergan "Ma'rifiy Renessans" davrida buyuk allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlar, jumladan aniq fanlar sohasida Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg'oniy, Umar Hayyom, Mirzo Ulug'bek, falsafa sohasida Abu Nasr Forobiy, Ibn Rashid, Muhammad G'azzoliy, Aziziddin Nasafiy, tibbiyot sohasida Abu Ali ibn Sino, tilshunoslikda Mahmud Zamaxshariy, she'riyatda Abu Abdullo Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy, Hofiz Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, rassomchilikda Kamoliddin Behzodlarning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlarini o'quvchi-yoshlar o'rtasida targ'ib qilish;

3-bob. Maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar

- “Kim yurtiga sodiq bo’lsa, mendirman o’sha” shiori ostida Vatan ozodligi yo’lida mardona kurash olib borgan buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdining mardligi va jasorati, shonli hayotini targ’ib qilish orqali o’quvchilarda Vatanga sadoqat, shijoat va qat’iyat tuyg’ularini mustahkamlash;
- “Sohibqiron Amir Temur - markazlashgan milliy davlatchilik asoschisi” g’oyasi asosida o’quvchilar ongida yurt ozodligi uchun kurash, xalqparvarlik, adolatparvarlik va bunyodkorlik tuyg’ularini tarbiyalash;
- milliy mustaqillik va ma'rifatparvarlik g’oyalarini ilgari surgan ajdodlar merosini keng o’rgatishga qaratilgan “Jadidchilik saboqlari” onlayn resurslarni yaratish va ularning targ’ibotini yo’lga qo’yish, “Millat oydinlari” turkum ma'naviy-ma'rifiy teleko’rsatuvlarni tayyorlash;

3-bob. Maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar

- “Ajdodlar jasorati unutilmaydi!” shiori ostida o’quvchilar ongida Vatanga sadoqat, milliy g’urur, mardlik va jasorat, burch va mas’uliyat tuyg’ularini mustahkamlash;
- maktab o’quvchilarining milliy davlatchilik, ilm-fan, madaniyat, san’at va me’morchilik tarixi va milliy qadriyatlarimiz haqidagi bilimlarini yanada oshirish maqsadida tarixiy obida, muzey va teatrlarda sayyor mashg’ulotlar uyushtirish;
- “Harbiy qismda bir kun” va “Vatanga qasam” turkum tadbirlar orqali o’quvchilar ongida milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma’nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat O’zbekiston fuqarosining muqaddas burchi ekanligi haqidagi tushunchani mustahkamlash;

3-bob. Maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar

- “Men yurt posboni bo’laman”, “Alpomish izdoshlari”, “To’maris qizlari”, “Mendirman Jaloliddin!” kabi mavzularda tanlov, musobaqa va uchrashuvlar o’tkazish, “Bo’lgusi askarga sovg’a” ruknida harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi kitoblar, badiiy va hujjatli filmlar targ’iboti va namoyishini tashkil etish.

3-bob. Maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar

- 4-§. Zamonamiz qahramonlari - yoshlarga ibrat timsoli yo'nalishi
- 1. Zamonamiz qahramonlarining erishgan yutuqlarini keng targ'ib etish, ularga nisbatan ehtirom tuyg'usini shakllantirish o'quvchilarda chin insoniy fazilatlarni kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.
- Ushbu maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilanadi:
- “Zamonamiz qahramonlari” ruknida turkum risolalar, animatsion, hujjatli va badiiy filmlar, roliklar yaratish va ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish;
- maktab kutubxonalarini O'zbekiston Qahramonlari, ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san'at namoyandalarining ibratli faoliyati yoritilgan adabiyotlar bilan boyitib borish;

3-bob. Maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar

- “Muvaffaqiyatga erishish sirlari” loyihasi doirasida o‘z sohasida yuqori natijalarga erishgan yurtdoshlarimiz bilan doimiy muloqotlar tashkil etish;
- ilmiy va ijodiy maktab yaratgan atoqli olim va ijodkorlarning uy-muzeylari hamda ishxonalarida sayohat-darslar o‘tkazish;
- “Beruniy izdoshlari”, “Ulug‘bek avlodlari”, “Navoiy vorislari”, “Zulfiyaxonim qizlari” kabi mavzularda o‘tkaziladigan ijodiy tanlovlar samaradorligini oshirish;
- “Yangi O‘zbekistonning ma'naviyat maskanlari” rukni ostida turkum tadbirlar va sayohatlar uyushtirish, o‘quvchilar o‘rtasida ijodiy ishlar va multimedia ishlanmalari tanlovlarini tashkil etish.

3-bob. Maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar

- 5-§. Maktab, mahalla va oila hamkorligini mustahkamlash yoʻnalishi
- 1. Maktab, mahalla va oila hamkorligini mustahkamlash, keng jamoatchilik va ota-onalarning farzand tarbiyasiga e'tiborini oshirishga qaratilgan ta'sirchan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish maktablardagi ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.
- Maktab, mahalla va oila hamkorligini mustahkamlash uchun quyidagilar amalga oshiriladi:
- mahallalardagi yoshlar etakchilari tomonidan o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish yuzasidan tashkil qilinadigan tadbirlarning ta'sirchanligini oshirish choralarini ko'rish;

3-bob. Maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar

- “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari”, “Temir daftar”ga kiritilgan oilalar farzandlarini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash maqsadida ularni bepul maktab formasi va darsliklar bilan ta'minlash;
- muammoli oilalardagi muhitni sog'lomlashtirish hamda notinch oilalar farzandlarini psixologik qo'llab-quvvatlashning ta'sirchan choralarini qo'llash bo'yicha maxsus treninglar tashkil etish;
- o'quvchilarni mahallalarda tashkil etiladigan xalq sayillari, umumxalq bayramlari, o'yinlar va sport musobaqalariga keng jalb qilish orqali ularni milliy qadriyat va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalash;

3-bob. Maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar

- farzand tarbiyasida ota-onaning mas'uliyati mavzusidagi aforizmlarni “Kun hikmati” ruknida mobil aloqa operatorlari orqali yetkazishni tizimli yo'lga qo'yish;
- ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyatini oshirish maqsadida “Eng namunali ota-ona” tanlovini o'tkazish;
- o'quvchilarning yosh psixologiyasiga bog'liq fe'l-atvori hamda ruhiy olamidagi salbiy o'zgarishlarni oila va maktab jamoasi bilan hamkorlikda bartaraf etish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish;
- maktablarda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda ota-ona, mahalla, maktab, huquqni muhofaza qilish organlari hamkorligini tubdan yaxshilash.

3-bob. Maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar

- “Uch avlod uchrashuvi” loyihasida maktab va mahallalarda turli avlod vakillari va o’quvchilar ishtirokida muloqotlar tashkil etish;
- “Ma'naviy barkamol avlod - barqaror jamiyat bunyodkori” tamoyili asosida o’quvchilarda turli g’oyaviy xavf-xatarlardan himoyalaniish immunitetini shakllantirish;
- respublikamizdagi milliy madaniy markazlar vakillari ishtirokida o’quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatning hayotimizdagi o’rni va ahamiyati haqida madaniy-ma'rifiy tadbirlar o’tkazish.

4-bob. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning usul va shakllari

- Maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish usullari – o'quvchilarda hayotiy zarur ko'nikmalar, ma'naviy-ahloqiy fazilatlarni shakllantiradigan vositalar majmuidir.
- Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda quyidagi metodik usullardan foydalaniladi:
- mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan metodika orqali “Tengdosh - tengdosh bilan” tamoyili asosida o'quvchilarning tarbiyaviy fazilatlarini shakllantirish;
- nutq madaniyati, kitobxonlik hamda izlanish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida dolzarb mavzular doirasida taqdimotlar o'tkazish;
- fikrlash hamda dunyoqarashini kengaytirish maqsadida intellektual o'yin va tanlovlar o'tkazish

4-bob. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning usul va shakllari

- o'qituvchi va o'quvchilar yaratgan media mahsulotlari orqali ularni salbiy tahdidlardan himoya qilish va ulardan ma'naviy immunitetni shakllantirish;
- ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlarida tarbiyaviy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan videorolik, badiiy film hamda shiorlarni tayyorlash va amaliyotga tadbiq etish;
- ta'lim muassasalarida sportni qadriyat sifatida rivojlantirish, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini ommalashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

4-bob. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning usul va shakllari

- Vatanparvarlik tuyg'usini yanada takomillashtirish uchun geografiya, biologiya, IT, tarbiya fanlari doirasida videoroliklar va boshqa media- mahsulotlar tayyorlash, taqdimotlarini tashkil qilish va baholash tizimini yo'lga qo'yish, ularni ijtimoiy tarmoqlar orqali keng namoyish qilish.
- Ma'naviy-ma'rifiy ishlar davra suhbatlari, ijodiy uchrashuv va kechalar, ko'rik-tanlovlar, taqdimotlar, intellektual o'yinlar, virtual klublar va boshqa shakllarda tashkil etiladi.
- Mazkur usullar ma'naviy-ma'rifiy ishlarning rang-barangligini ta'minlaydi. Pirovard natijada bu maktabda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

5-bob. Erishiladigan natijalar

- Mazkur Konsepsiya “Yangi O‘zbekistonning yangi maktabi” g‘oyasi asosida mamlakatimizda maktab ta’limini umummilliy harakatga aylantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni mazmunan yangi bosqichga ko‘tarishda muhim rol o‘ynaydi.
- Jumladan:
- o‘quvchilar qalbida xalqimizga xos bo‘lgan yuksak ma’naviy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlar muvofiqlashtiriladi;
- maktablarda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini oshirish va ularni bugungi kun talablari bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilar ongida ma’naviy immunitet mustahkamlanadi;

5-bob. Erishiladigan natijalar

- jahon xalqlari taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk allomalarimizning ilmiy va madaniy merosi, ularning ibratli hayot yuli ta'lim-tarbiya jarayonlariga keng singdiriladi;
- mamlakatimiz hayotining turli jabhalarida alohida o'rnak ko'rsatib, yuksak natijalarga erishgan, Vatanimiz taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shib kelayotgan zamonamiz qahramonlarining hayoti va faoliyatini keng targ'ib qilish orqali o'quvchilar ongida zamonaviy ideallar shakllantiriladi;
- darslik va metodik adabiyotlarni yangilash, pedagoglarni kasbiy faoliyati va tarbiyaviy ishlardagi yuqori natijalariga ko'ra rag'batlantirishning yangi tizimi joriy etiladi;

5-bob. Erishiladigan natijalar

- ota-onalarning huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish orqali ularning farzand ta'lim-tarbiyasiga mas'uliyati oshiriladi;
- ta'lim-tarbiya jarayonida maktab direktori, pedagog xodimlar, o'quvchilar hamda ota-onalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning yangi mexanizmi joriy etilishi natijasida maktablardagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligiga erishiladi.



E`TIBORINGIZ UCHUN
KATTA RAHMAT!